



TOMAS HARDE VA XURSHID DO'STMUHAMMAD IJODIDA TABIAT KONTSEPTI

Qodirova Madina Boynazar qizi,

Qarshi shahar 31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi.

E-mail: madinaqodirova@webster.edu

ORCID: 0009-0001-3771-6382

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1784>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 23

KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

tabiat konsepti, badiiy konsept, peyzaj, Uesseks, Egdon hiti, ruhiyat, ramz, fasl, ekotantid, qiyosiy poetika

ANNOTATSIYA/АННОТАЦИЯ

Maqolada Tomas Harde va Xurshid Do'stmuhammad nasrida tabiat konseptining badiiy-poetik tuzilishi qiyosiy aspektida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tabiat oddiy peyzaj yoki voqealar foni sifatida emas, balki makon, vaqt, ruhiyat, axloqiy baholash va ramziy ma'nolarni birlashtiruvchi mualliflik konsepti sifatida qaraladi. Tomas Hardening "Tess of the d'Urbervilles", "The Return of the Native", "The Woodlanders" romanlaridagi Uesseks, Egdon hiti, fasllar, o'rmon va tirik mavjudotlar obrazlari; Xurshid Do'stmuhammadning "Erta bahor", "Umid guli", "Chayongul" asarlaridagi bog', gul, shamol, bulut, bahor va zoomorf timsollar tahlilga tortildi. Natijada Harde poetikasida tabiat insondan mustaqil, uzoq tarixiy xotiraga ega makon sifatida, Do'stmuhammad ijodida esa inson ichki olamini ochuvchi psixologik va ramziy kod sifatida faollashishi aniqlandi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 23

KEYWORDS

concept of nature, artistic concept, landscape, Wessex, Egdon Heath, psychology, symbol, season, ecocriticism, comparative poetics

ANNOTATION

The article comparatively examines the artistic concept of nature in the prose of Thomas Hardy and Khurshid Dustmuhammad. Nature is treated not merely as landscape or background, but as an authorial concept integrating space, time, psychology, ethical evaluation and symbolic meaning. The analysis focuses on Wessex, Egdon Heath, seasons, woodland and non-human life in Hardy's "Tess of the d'Urbervilles", "The Return of the Native" and "The Woodlanders", and on the garden, flowers, wind, clouds, spring and zoomorphic imagery in Dustmuhammad's "Early Spring", "The Flower of Hope" and "Chayongul". The study shows that Hardy represents nature as an autonomous and historically deep environment, whereas Dustmuhammad frequently turns natural imagery into a psychological and symbolic code revealing the inner state and moral condition of the human being.

Kirish

Tabiat adabiyotning eng qadimiy va eng barqaror mavzularidan biri. Biroq har bir yirik ijodkor tabiatni o'z dunyoqarashi, estetik tajribasi va qahramon haqidagi tasavvuridan kelib chiqib qayta yaratadi. Shu ma'noda tabiat tasviri bilan tabiat konsepti bir xil hodisa emas. Peyzaj muayyan manzarani ko'z oldimizga keltirsa, konsept o'sha manzaraga yuklangan ma'no, hissiy munosabat, qadriyat, madaniy xotira va muallifning borliq haqidagi fikrini ham qamrab oladi. Demak, badiiy matnda "tabiat" daraxt, dala, yomg'ir, shamol yoki fasllarning nomi bilan cheklanmaydi; u insonning o'zini anglash usuliga aylanadi.

Tomas Harde va Xurshid Do'stmuhammad ijodi bu jihatdan qiyosiy o'rganish uchun sarmahsul material beradi. Xarde XIX asr oxiri Angliya qishloq hayotini sanoatlashuv, ijtimoiy tabaqalanish va evolyutsionistik dunyoqarash bilan kesishgan holda tasvirlaydi. Uesseks makoni uning romanlarida geografik hududdan ko'ra kengroq ma'no kasb etadi: yer, o'rmon, hit, shamol, fasl va mehnat inson taqdiriga qo'shilib ketadi. Do'stmuhammad prozasida esa tabiat ko'pincha ixcham detal, ruhiy parallelizm, antropomorfik tasvir yoki ramziy nom orqali personajning botiniy holatini ochadi. "Erta bahor"da bahorning o'zi inson bilan muloqotga kirishgandek jonlansa, "Umid guli"da havoning qorayishi tarixiy xavotirning ruhiy ekvivalentiga aylanadi.

M.Sultonova peyzajning g'oyaviy-kompozitsion vazifasiga e'tibor qaratib, tabiat manzarasi qahramon kayfiyatini ochishi, voqealarni bog'lashi va estetik ta'sir hosil qilishini ta'kidlaydi [14]. X. Rahmonova esa Do'stmuhammad nasrida tabiat va joy tasviri qahramon ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog'lanib, badiiy-falsafiy mazmun kasb etishini ko'rsatadi [6, 53-b.]. Xarde bo'yicha zamonaviy ekotantidiy tadqiqotlarda ham tabiat unsurlari personaj psixologiyasi, ijtimoiy muhit va axloqiy munosabatlar bilan bir tizimda ko'riladi [8; 9].

Tadqiqotning asosiy materiali sifatida Tomas Hardening "Tess of the d'Urbervilles", "The Return of the Native", "The Woodlanders" romanlari hamda Xurshid Do'stmuhammadning "Erta bahor", "Umid guli", "Chayongul" asarlari tanlandi. Tanlov tasodifiy emas: Xardening ushbu romanlarida tabiiy makon qahramon taqdiri va ijtimoiy o'zgarishlar bilan bevosita bog'langan; Do'stmuhammad asarlarida esa tabiat detallari qahramon ruhiyatini ochuvchi kuchli ramziy va psixologik funktsiya bajaradi. Shu tariqa ikki ijodkorning turli janr va davrga mansub asarlarida bir konseptning qanday milliy va individual shakl olishi kuzatiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqotning nazariy va metodologik asosini tabiatning badiiy adabiyotdagi o'rni, peyzaj poetikasi, badiiy konsept, psixologik tasvir hamda ekotantid masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tashkil etadi. Tabiat obrazini badiiy matnning yordamchi yoki dekorativ unsuri sifatida emas, balki mustaqil ma'no hosil qiluvchi poetik tizim sifatida o'rganish adabiyotshunoslikda tobora kengayib borayotgan ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ayniqsa, zamonaviy tadqiqotlarda tabiat, makon, inson ruhiyati va ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatni kompleks tarzda tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan Tomas Harde va Xurshid Do'stmuhammad ijodidagi tabiat konseptini qiyosiy o'rganish mavjud nazariy qarashlarni birlashtirish va ularni ikki xil milliy-adabiy tizim materialida sinash imkonini beradi.

O'zbek adabiyotshunosligida peyzajning badiiy asardagi o'rni va vazifalarini nazariy jihatdan yoritgan muhim ishlardan biri M. Sultonovaning "Peyzaj san'ati" nomli tadqiqotidir. Olimaning mazkur asarida tabiat tasviri badiiy asarning oddiy bezagi emas, balki syujet, kompozitsiya, qahramon ruhiyati va muallif munosabatini ifodalovchi poetik vosita sifatida baholanadi [14, 3–15-b.]. Xususan, peyzajning qahramon kayfiyatini ochish, voqealar rivojini tayyorlash, badiiy makon yaratish va asarning umumiy hissiy-estetik ta'sirini kuchaytirishdagi funktsiyalari tadqiqotning nazariy ahamiyatini belgilaydi. Biroq mazkur tadqiqotda tabiat, asosan, peyzaj san'ati va tasvir vositasi doirasida ko'rib chiqiladi. Shu sababli tabiatni takrorlanuvchi obrazlar, ramzlar, qadriyatlar va mualliflik dunyoqarashini birlashtiruvchi yaxlit badiiy konsept sifatida tadqiq etish ehtiyoji saqlanib qoladi.

Xurshid Do'stmuhammad ijodining badiiy xususiyatlarini o'rganishda X. Rahmonovanning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchining Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalari badiiyatiga bag'ishlangan doktorlik dissertatsiyasi avtoreferatida adib ijodidagi obrazlilik, ramziylik, metaforik tafakkur va psixologik tasvir masalalari keng yoritilgan [7, 8–24-b.]. Ushbu tadqiqot Do'stmuhammad poetikasining muhim belgisi sifatida tashqi voqelik bilan qahramonning ichki dunyosi o'rtasidagi murakkab munosabatni ko'rsatadi. Adib nasrida tabiat, buyum, rang, tovush yoki jonivor obrazi ko'pincha bevosita tasvir obyektidan ko'ra kengroq semantik yukni o'zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan Rahmonovanning xulosalari Do'stmuhammad asarlaridagi gul, bahor, shamol, bulut va boshqa tabiiy unsurlarning ramziy hamda psixologik funktsiyasini aniqlashda muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi.

X.Rahmonovanning keyingi maqolasida Xurshid Do'stmuhammad ijodida badiiy tasvir vositalarining qahramon ruhiyati va asarning falsafiy mazmunini shakllantirishdagi o'rni yanada aniqroq ko'rsatib berilgan. Tadqiqotchi peyzaj va joy tasvirining personaj kechinmalari bilan uzviy bog'lanishini, tabiat manzarasi ko'pincha ichki ruhiy holatning tashqi ifodasiga aylanishini ta'kidlaydi [6, 51–57-b.]. Jumladan, "Umid guli" qissasidagi tabiat manzaralarining ifodiy vaziyat va qahramon ruhiyatiga bog'liq holda talqin qilinishi mazkur maqola uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Biroq ushbu tadqiqotda tabiat obrazlari, asosan, badiiy tasvir va psixologizm doirasida tahlil qilingan. Mazkur maqolada esa tabiat obrazlarining alohida poetik funksiyalarini umumlashtirib, ularni tabiat konseptining yadro va periferik qatlamlari asosida o'rganishga e'tibor qaratiladi.

Xurshid Do'stmuhammadning o'z asarlari ham tadqiqot uchun birlamchi manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Adibning "Hikoya" to'plamida jamlangan "Erta bahor" kabi asarlarida tabiat inson ruhiy holatini ochuvchi, vaqtning o'tkinchiligi va hayotning yangilanishini ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi [4, 112–120-b.]. "Erta bahor"dagi bahor, bog' va gul obrazlari oddiy peyzaj detali bo'lib qolmay, qahramonning hayotga munosabati, ichki sezgirligi va mavjudlik haqidagi falsafiy qarashlarini ifodalashga xizmat qiladi. Tabiatning antropomorfik tasviri, ya'ni uning go'yo inson bilan muloqotga kirishishi, Do'stmuhammad poetikasidagi tabiat konseptining psixologik-estetik xususiyatlarini belgilaydi.

Adibning "Qissalar" to'plamiga kiritilgan "Umid guli" va "Chayongul" asarlarida esa tabiiy obrazlarning semantik imkoniyatlari yanada murakkablashadi [5, 35–96-b.]. "Umid guli"dagi gul obrazi umid, noziklik va ma'naviy hayot ramzini ifodalasa, osmonning qorayishi, sovuq va yorug'likning so'nishi tarixiy hamda ruhiy xavotir bilan bog'lanadi. "Chayongul"da esa tabiatga oid ikki qarama-qarshi semantik birlik — gul va chayon bitta obraz doirasida birlashtirilib, inson ruhiyatidagi murakkab o'zgarishlarning metaforik modeli yaratiladi. Demak, Do'stmuhammad asarlarida tabiat konsepti predmetlikdan ramziylikka, tashqi tasvirdan ichki ma'noga qarab harakatlanadi. Bu holat adib ijodini Tomas Harde poetikasi bilan qiyoslashda muhim ilmiy asos bo'la oladi.

Tomas Harde ijodini o'rganishda uning asosiy badiiy matnlari "Tess of the d'Urbervilles", "The Return of the Native" va "The Woodlanders" romanlari birlamchi manba sifatida tanlandi [1, 1–592-b.; 2, 1–512-b.; 3, 1–464-b.]. Mazkur asarlar Xarde poetikasida tabiat va inson munosabatining turli qirralarini kuzatish imkonini beradi. "The Return of the Native" romanida Egdon hiti qahramonlardan mustaqil mavjud bo'lgan, o'zining uzoq tarixiy davomiyligi va ichki qonuniyatiga ega makon sifatida tasvirlanadi [2, 1–28-b.]. Shu jihatdan tabiat personajning ruhiy holatini aks ettiruvchi oddiy fon emas, balki inson istaklari va imkoniyatlaridan kengroq bo'lgan mustaqil borliqdir. Xardening bunday yondashuvi tabiat konseptining makon va tarixiy vaqt bilan bog'langanligini ko'rsatadi.

"Tess of the d'Urbervilles" romanida tabiatning qahramon ruhiyati va taqdiri bilan munosabati yanada murakkab ko'rinish oladi. M. Nuruzzaman o'z tadqiqotida Tess obrazini tabiat bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilib, romandagi fasllar, landshaft va tabiiy muhit qahramonning ichki dunyosi bilan o'zaro munosabatda ekanini qayd etadi [8, 153–159-b.]. Tadqiqotchining kuzatishlariga ko'ra, tabiiy makon romanda insonning hayotiy tajribasi va hissiy holatini aks ettiruvchi muhim poetik qatlam hisoblanadi. Ushbu qarash mazkur tadqiqot uchun ahamiyatlidir, chunki unda tabiat va inson o'rtasidagi bog'liqlik biryoqlama "fon va qahramon" munosabati sifatida emas, balki o'zaro ma'no hosil qiluvchi tizim sifatida tushuniladi. Shu bilan birga, mazkur maqolada Nuruzzaman tadqiqotidan farqli ravishda Harde poetikasidagi tabiatning konseptual yadrosi Xurshid Do'stmuhammad ijodidagi psixologik va ramziy tabiat modeli bilan qiyosiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

A.S.Almutayrining Tomas Harde ijodidagi tabiat ramzlariga bag'ishlangan ekotantidiy tadqiqoti ham mazkur mavzuni yoritishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqotda gul, daraxt, hayvon va landshaft obrazlari ekologik tafakkur bilan bir qatorda insonning psixologik holati va axloqiy munosabatlarni ifodalovchi belgilar sifatida talqin qilinadi [9, 103–109-b.]. Ushbu yondashuv Xarde asarlarida tabiatni faqat geografik makon yoki estetik manzara sifatida tushunish yetarli emasligini ko'rsatadi. Tabiat obrazlari inson va borliq, inson va boshqa tirik mavjudotlar, shuningdek, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni ham ochib beradi. Biroq ekotantidiy yondashuvning asosiy e'tibori inson va tabiiy muhit o'rtasidagi ekologik munosabatga qaratilgan bo'lsa, mazkur tadqiqotda tabiatning makoniy, vaqtli, psixologik va aksiologik qatlamlarini bir butun konseptual tizim sifatida ko'rib chiqish nazarda tutiladi.

I.Gadoinning Tomas Harde ijodidagi "yashil" tafakkur masalasiga bag'ishlangan tadqiqoti ham Harde poetikasining ekosentrik xususiyatlarini tushinishda muhim manbalardan biridir [10, 1–12-b.]. Tadqiqotda Harde asarlarida inson tabiatning mutlaq markazi sifatida

emas, balki undan kengroq biologik, tarixiy va makoniy tizimning bir qismi sifatida namoyon bo'lishi ta'kidlanadi. Bu qarash mazkur maqolada ilgari surilgan Xarde tabiat konseptining asosiy xususiyati tabiatning insondan nisbatan mustaqil mavjudligi haqidagi fikr bilan hamohangdir. Aynan shu jihat Xarde va Do'stmuhammad ijodidagi asosiy poetik farqni aniqlash imkonini beradi: Xarde tabiatning mustaqil borliq sifatidagi salmog'ini kuchaytirsa, Do'stmuhammad ko'proq tabiatning inson ruhiyatida aks etishi va ramziy ma'noga ega bo'lishiga urg'u beradi.

Tadqiqotning umumiy metodologik asosini ekotantid nazariyasiga oid fundamental manbalar ham tashkil qiladi. Ch.Glotfelty va H.Fromm tahriri ostida nashr etilgan "The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology" to'plami ekotantidning adabiyot va jismoniy muhit o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi yo'nalish sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega [11, 18–30-b.]. Ushbu manbada inson markazidagi adabiy tahlilni kengaytirib, tabiat va noinson mavjudotlarning badiiy matndagi o'rniga e'tibor qaratiladi. G.Garrardning "Ecocriticism" asarida esa ekotantidning asosiy kategoriyalari, jumladan, tabiat, makon, cho'l, hayvonot dunyosi, ekologik inqiroz va insonning tabiiy muhitga munosabati tizimli ravishda yoritiladi [12, 1–15-b.]. Mazkur nazariya manbalar Harde ijodidagi tabiatning ekologik va falsafiy mazmunini tahlil qilishga yordam beradi.

Shu bilan birga, mazkur maqolada ekotantidiy metod yagona va mutlaq tahlil vositasi sifatida qabul qilinmaydi. Chunki Xurshid Do'stmuhammad asarlaridagi tabiat obrazlarini faqat ekologik munosabat nuqtayi nazaridan o'rganish ularning psixologik, ramziy va madaniy ma'nolarini to'liq ochib bermaydi. Shu sababli tadqiqotda ekotantid konseptual va germeneytik yondashuvlar bilan uyg'unlashtiriladi. Natijada tabiat obrazi bir vaqtning o'zida makon, ruhiyat, ramz, tarixiy xotira va qadriyat tashuvchisi sifatida tahlil qilinadi.

M.Qodirovaning Tomas Harde va Xurshid Do'stmuhammad asarlarida tabiat va jamiyat munosabatiga bag'ishlangan maqolasi mazkur mavzuga bevosita yaqin tadqiqotlardan biridir [13, 8–12-b.]. Unda ikki ijodkor asarlarida tabiiy muhit va ijtimoiy munosabatlarning badiiy-falsafiy ifodasi qiyosiy asosda ko'rib chiqilgan. Mazkur tadqiqotning ahamiyatli tomoni shundaki, u Harde va Do'stmuhammad ijodini bir tadqiqot doirasida qiyoslashga uringan ishlardan biri hisoblanadi. Biroq unda asosiy e'tibor tabiat va jamiyat munosabatiga qaratilgan bo'lsa, mazkur maqolada tabiatning badiiy konsept sifatidagi ichki tuzilishi, uning yadro va periferik semalari, makoniy, vaqtli, psixologik hamda aksiologik qatlamlari tadqiqot markaziga olib chiqiladi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Tomas Harde ijodida tabiat masalasi, asosan, ekotantid, landshaft poetikasi, inson va noinson mavjudotlar munosabati hamda ekologik tafakkur doirasida tadqiq etilgan [8, 153–159-b.; 9, 103–109-b.; 10, 1–12-b.]. Xurshid Do'stmuhammad ijodida esa tabiatga oid obrazlar peyzaj, psixologizm, ramziylik va metaforik tafakkur bilan bog'liq holda yoritilgan [6, 51–57-b.; 7, 8–24-b.]. Biroq mazkur ikki ijodkor asarlarida tabiatning yagona badiiy konsept sifatidagi tizimli qiyosiy tahlili yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning ilmiy yo'nalishi mavjud ishlardan bir necha jihati bilan farqlanadi. Birinchidan, tabiat peyzaj yoki alohida badiiy detal sifatida emas, balki takrorlanuvchi obrazlar, ma'nolar va qadriyatlarini birlashtiruvchi konseptual tizim sifatida o'rganiladi. Ikkinchidan, Tomas Harde va Xurshid Do'stmuhammad ijodi genetik aloqadorlik nuqtayi nazaridan emas, balki tipologik va qiyosiy-poetik asosda tahlil qilinadi. Uchinchidan, Harde poetikasidagi makon–vaqt–tiriklik modeli bilan Do'stmuhammad ijodidagi sezgi–ruhiyat–ramz modeli o'zaro qiyoslanadi. Natijada ikki turli tarixiy va milliy adabiy muhit vakillarining tabiat orqali inson, borliq va ma'naviy qadriyatlar haqidagi qarashlari aniqlanadi.

Metodologiya

Maqolada qiyosiy-tipologik, konseptual, germeneytik, yaqin o'qish va ekotantidiy tahlil usullaridan foydalanildi. Ekotantid adabiyot va fizik muhit o'rtasidagi munosabatni o'rganishni markazga qo'yadi. Biroq mazkur tadqiqot faqat "ekologik" mazmunni izlash bilan cheklanmaydi. Konseptual tahlil tabiat obrazlarining takrorlanuvchi semalarini, ularning yadro va periferiyasini; germeneytik yondashuv esa bu obrazlar ortidagi madaniy va axloqiy ma'nolarni ochishga xizmat qiladi. Shu bois "tabiat konsepti" deganda matndagi tabiiy ob'ektlar yig'indisi emas, balki ularni bir ma'no markaziga bog'laydigan mualliflik qarashi nazarda tutiladi.

Natijalar

Badiiy konseptni matndagi bir necha takroriy belgi, obraz va munosabat birlashtiradi. "Tabiat" konsepti uchun yer, osmon, suv, o'simlik, hayvon, fasl va iqlim kabi nomlar tashqi qatlamni tashkil qiladi. Ularning o'zi hali konsept emas. Konsept shu birliklar qahramonning ruhiy holati, vaqt hissi, axloqiy tanlovi yoki jamiyat bilan munosabatiga kirishganda shakllanadi. Masalan, bahor faqat fasl sifatida kelsa – bu peyzaj detali; bahor qahramonning umidi, kechikkan baxti yoki qayta

tilirish hissi bilan birlashsa, u konseptual belgiga aylanadi. Xuddi shunday, shamol tabiiy hodisa bo'lishi mumkin, ammo u xavf, o'zgarish yoki ichki bezovtalik semasini doimiy ravishda tashisa, muallifning obrazlar tizimida alohida ma'no tuguniga aylanadi.

Shu nuqtai nazardan tabiat konseptining to'rt asosiy qatlamini ajratish mumkin. Birinchi qatlam – predmet-makon qatlami: dala, o'rmon, bog', hit, yo'l, tog' va hokazo. Ikkinchi qatlam – vaqt-ritm qatlami: kun-tun, fasllar, o'sish va so'lish, tug'ilish va yemirilish. Uchinchi qatlam – psixologik qatlam: tabiat bilan qahramon kayfiyatining parallel yoki kontrast munosabati. To'rtinchi qatlam – aksiologik, ya'ni qadriyat qatlami: tabiatga munosabat orqali insonning mehr, zo'ravonlik, manfaat, mas'uliyat yoki begonalashuvi baholanadi. Xarde va Do'stmuhammadda mazkur qatlamlarning barchasi uchraydi, lekin ularning salmog'i bir xil emas.

Tomas Harde tabiatni katta makon va uzoq vaqt mantig'i bilan qursa, Xurshid Do'stmuhammad ko'p hollarda uni zichlashtirilgan ramz, mikropeyzaj va insonlashtirilgan detal orqali beradi. Bu farq ikki adibning janriy-uslubiy tabiati bilan ham bog'liq. Xarde romanlarida tabiatga keng nafas, geografik o'licham va tarixiy davomiylik kerak; Do'stmuhammad hikoya va qissalarida esa bir gul, bir qora bulut, bir shamol yoki faslning qisqa tasviri butun ruhiy vaziyatni ifodalay oladi.

Xarde poetikasida tabiat konseptining eng barqaror yadrosi – Uesseks. Uesseks real janubi-g'arbiy Angliya hududlariga tayansa-da, adib uni badiiy qayta nomlash, tarixiy xotira va topografik detallar orqali mustaqil adabiy makonga aylantiradi. Shuning uchun Uesseksni oddiy “voqea joyi” deb qabul qilish yetarli emas. U qahramonlarning imkoniyatlari, harakat chegarasi, mehnat turi, ijtimoiy maqomi va hatto hissiyatini belgilab turuvchi muhitdir. Xarde haqidagi zamonaviy tadqiqotlarda uning landshaftni tirik munosabatlar tizimi sifatida ko'rishi, insonni esa shu tizimning markazi emas, bir qismi sifatida tasvirlashi ta'kidlanadi [10].

“The Return of the Native”da Egdon hiti tabiat konseptining eng kuchli ko'rinishlaridan biridir. Asar boshida hit inson tarixidan ham qadim, qorong'ulik va sokinlikni o'ziga singdirgan makon sifatida beriladi [2]. U qahramonlarning istagiga moslashmaydi; aksincha, ular Egdon bilan kelishish yoki undan qochishga majbur. Estasiya uchun hit – torlik va qafas, Klim uchun esa qaytish va o'zlikni anglash makoni. Demak, bir xil tabiat turli personaj ongida turlicha ma'no hosil qiladi. Bu hol konseptning sub'yektiv periferiyasini ko'rsatadi: tabiat o'zligicha mavjud, lekin inson unga o'z qo'quvi, orzusi yoki xotirasini yuklaydi.

“Tess of the d'Urbervilles”da tabiat konsepti inson tanasi va hissiyotiga yanada yaqinlashadi. Tess qishloq mehnati, sutchilik, dala va fasllar ritmi bilan birga yashaydi. Md. Nuruzzamanning kuzatishicha, romanda tabiiy atmosfera, landshaft va fasllar almashinuvi Tessning ichki ritmlarini aks ettiradi [8, 153–159-b.]. Talbothays davrida yashillik, iliq havo va tiriklikning ko'payishi qahramonning sevgi va yangi hayotga ishonchini kuchaytiradi; Flintcomb-Ashdagi sovuq, quruq va og'ir manzara esa uning ijtimoiy va jismoniy siqilishiga mos tushadi. Shu tariqa fasl va makon syujet bilan birga harakatlanadi.

Xarde tabiatni insoniy axloqqa bo'ysundirmaydi. Bu muhim xususiyat. Tabiat Tessni jamiyat singari “aybdor” deb hukm qilmaydi; Egdon hiti ham qahramonlarning xatosi uchun jazolovchi ilohiy kuch emas. U o'z qonuniyati, davomiyligi va bafarqligi bilan mavjud. Aynan shu mustaqillik Xarde poetikasida tabiatni kuchli konseptual markazga aylantiradi. A. Almutayri gul, daraxt, hayvon va landshaft obrazlarini Xarde nasrida ekologik hamda psixologik ma'nolarning tutashgan nuqtasi sifatida baholaydi [9]. Bu yerda inson tabiatni tushungan sari o'zining ham cheklangan mavjudot ekanini anglaydi.

“The Woodlanders”da esa o'rmon tabiat konseptining “tirik jamoa” semasini kuchaytiradi. Giles Winterborne daraxtlar, mevachilik, fasl va yer mehnati bilan shunchalik uyg'unlashganki, uning shaxsiyati tabiatdan ajralmaydi. Romanni nashr etgan zamonaviy sharhlarda ham Gilesning tabiiy kuchlarga nihoyatda sezgirliги asarning markaziy xususiyatlaridan biri sifatida qayd etiladi [3]. Biroq Xarde bu uyg'unlikni romantik idilliyaga aylantirmaydi. Tabiatda hayot va o'lim, o'sish va chirish, yaqinlik va raqobat bir vaqtda mavjud. Shu sababli Xarde uchun “tabiat” faqat go'zallik emas; u inson istagidan kengroq va murakkabroq borliqdir.

Xurshid Do'stmuhammad prozasida tabiat konsepti ko'proq inson ichki olamiga yaqin masofadan quriladi. Adib keng peyzajni uzoq tasvirlashdan ko'ra bir necha sezgir detal orqali muhit va ruhiyatni

bog'lashga moyil. X. Rahmonova Do'stmuhammad nasrida peyzaj, psixologik tasvir va qahramon nutqi bir-birini to'ldiruvchi vositalar ekanini ko'rsatadi [6]. Ayniqsa, “Umid guli”dagi qora bulut, sovuq nafas va yo'qolgan quyosh tarixi og'irlashib borayotgan shaxsning ichki xavotirini tashqariga ko'chiradi. Tadqiqotchi bu manzarani Fitratning Moskvadagi tushkun kayfiyati va millat taqdiri haqidagi xavotiri bilan hamohang tasvir sifatida izohlaydi [6, 53-b.].

“Umid guli”da tabiat bir necha semantik funktsiyani bajaradi. Birinchidan, u zamonning ruhiy iqlimini belgilaydi: kunduzgi yorug'likning qora bulut bilan berkilishi kelajak noaniqligini his ettiradi. Ikkinchidan, inson va borliq o'rtasidagi empatik bog'lanish hosil bo'ladi: qahramonning dardi go'yo osmon va havoga tarqaladi. Uchinchidan, “gul” leksemasi sarlavhada umid, noziklik va saqlab qolinishi lozim bo'lgan ma'naviy hayot ramziga aylanadi. Bunda tabiat konsepti tashqi manzaradan ichki ma'noga harakat qiladi: ko'z bilan ko'rindigan belgi oxir-oqibat ruhiy va milliy xotirani ifodalaydi.

“Erta bahor” hikoyasida esa konseptning boshqa qirralari namoyon bo'ladi. Romiz Jo'ra dala hovlisiga kirishi bilan lola, lolaqizg'aldoq, chuchmoma, daraxt va toza havoni jismonan his etadi. Bog' unga go'yo javob qaytaradi, bahor qahramonni kutib olgan tirik mavjudotdek tasvirlanadi. Matnda gullarning “chapak chalishi”, bahor bilan Romiz Jo'raning “dili, tili, niyati bir” bo'lishi kabi antropomorfik harakatlar tabiatni sub'yekt darajasiga ko'taradi [4]. Bu yerda tabiat qahramonni o'rab turgan muhit emas, u bilan muloqotga kirishadigan estetik hamsuhbatdir.

“Erta bahor”da tabiat konseptining vaqt qatlami ayniqsa kuchli. Qishdan bahorga o'tish oddiy kalendar almashinuvi emas; keksayib borayotgan insonning hayotga yana bir bor hayrat bilan qarashi, mavjudlikning qisqaligini his qilishi va tiriklikka shukronasi bilan uyg'unlashadi. Bahor shu ma'noda yangilanish bilan birga o'tkinchi vaqtni ham eslatadi. Gulning umri qisqa, inson umri ham cheklangan. Lekin aynan shu cheklanganlik go'zallikni qadrlil qiladi. Do'stmuhammad tabiatni bu yerda falsafiy mulohazani “aytib berish” uchun emas, uni his qildirish uchun ishlatadi.

“Chayongul”da tabiat konsepti yanada ramziylashadi. Sarlavhaning o'zi “gul” va “chayan” semalarini birlashtirib, noziklik va zahar, go'zallik va himoya, poklik va jarohat kabi qarama-qarshi ma'nolarni bir nuqtaga jamlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda “gul” obrazining ijtimoiy va ruhiy bosim ta'sirida “chayan” semasiga yaqinlashishi inson ruhiyatidagi fojiaiy o'zgarishning belgisi sifatida talqin qilingan [5]. Bu yerda tabiat obrazi real botanik yoki zoologik mazmundan uzoqlashib, inson xulqi va jamiyat ta'sirini tushuntiruvchi metaforik modelga aylanadi.

Muhokama

Do'stmuhammadda tabiatning yana bir muhim xususiyati – uning hissiy aniqligi. Havoning avzoyi, nurning so'nishi, barg, gul, tuproq, shamol kabi detallar orqali qahramonning holati bevosita nomlanmasdan turib his ettiriladi. Shu jihatdan tabiat konsepti psixologik tasvirming “tashqi tili” vazifasini o'taydi. Adibning inson tabiatiga qiziqishi ham shu yerda tashqi tabiat bilan tutashadi: tabiatdagi o'zgarish qahramon ruhiyatidagi o'zgarishni ko'rsatish yoki unga kontrast yaratish uchun xizmat qiladi.

Ikki adib ijodida tabiat konseptining umumiy yadrosini “inson borliqdan ajralgan emas” degan g'oya tashkil etadi. Xarde qahramonlari yer, fasl va mehnat ritmiga bog'langan; Do'stmuhammad qahramonlari esa tabiiy muhitni his qilish orqali o'z ichki holatini anglaydi. Biroq konseptning ichki tuzilishida farq bor. Xarde uchun yadro, avvalo, makon va uzoq vaqt: hit, o'rmon, vodiy, dala insondan oldin mavjud bo'lgan va undan keyin ham davom etadigan borliq. Do'stmuhammad uchun yadro ko'proq hissiy-psixologik munosabat: bahor, gul, bulut yoki shamol inson qalbidagi holatni harakatga keltiradi.

Xarde konseptining periferiyasida taqdir, mehnat, industrialashuv, inson va noiinson tiriklikning qarindoshligi kabi semalar joylashadi. Do'stmuhammadda esa periferiya ruhiy xotira, umid, xavotir, ma'naviy sinov, go'zallikning o'tkinchiligi va inson tabiatining ikkilanishi bilan kengayadi. Shu bois bir xil “bahor” yoki “o'simlik” obrazi ikki adabiy tizimda boshqa vazifa bajarishi mumkin: Xarde romanlarida fasl ijtimoiy mehnat va taqdir ritmiga qo'shilsa, Do'stmuhammad hikoyasida u qahramonning o'zi bilan suhbatlashadigan ma'naviy-estetik hodisaga aylanadi.

1-jadval

Tomas Harde va Xurshid Do'stmuhammad ijodida tabiat obrazining qiyosiy-tipologik xususiyatlari		
Qiyosiy belgi	Tomas Harde	Xurshid Do'stmuhammad
Kontsept yadrosi	Makon, yer, fasl, uzoq tabiiy vaqt	Ruhiy holat, ramz va sezgi
Asosiy obrazlar	Uesseks, Egdon hiti, o'rmon, dala, hayvonlar	Bog', bahor, gul, bulut, shamol, zoomorf timsol
Psixologik funktsiya	Muhit qahramonni sinaydi va uning cheklanganligini ochadi	Tabiat qahramon ichki holatining tashqi kodiga aylanadi
Aksiologik ma'no	Inson tabiat markazi emas; u katta tizimning bir qismi	Tabiatni his qilish ma'naviy sezgirlik va o'zlikni anglash bilan bog'lanadi

Jadvaldan ko'rinadiki, umumiy konseptual maydon mavjud bo'lsa-da, ikki adibning estetik markazi bir xil emas. Xarde "tabiat ichidagi inson" modelini kuchaytiradi; Do'stmuhammad esa "inson ichida aks etgan tabiat" modelini ko'proq ishga soladi. Birinchisida landshaftning mustaqilligi, ikkinchisida uning ruhiy semantikasi yetakchi. Aynan shu farq qiyosiy tadqiqot uchun ahamiyatli: tipologik yaqinlik milliy va individual poetikani yo'qotmaydi, aksincha, har bir adibning o'ziga xosligini aniqroq ko'rsatadi.

Yana bir umumiy jihat – tabiatning axloqiy "o'lchov" vazifasidir. Xarde qahramonning tabiatga munosabati orqali uning tiriklikka nisbatan sezgirligini ko'rsatadi. Tessning hayvonlarga rahmi yoki Gilesning o'rmon hayoti bilan uyg'unligi buning misoli. Do'stmuhammad esa tabiatni ko'ra bilish va undan ta'sirlanish insonning botiniy tirikligi belgisiga aylanadi. Romiz Jo'raning erta bahordan hayratlanishi shunchaki estetik zavq emas; u yashashning o'ziga nisbatan minnatdorlik va vaqtni qadrlash hissinini uyg'otadi. "Umid guli"dagi qoraygan osmon esa bunday uyg'unlikning teskari qutbini – tarixiy va ruhiy bosimni his ettiradi.

Tahlil natijasida bir nechta xulosaviy holatlar aniqlandi. Birinchidan, har ikki adibda tabiat tasviri syujetning yordamchi bezagi darajasidan chiqib, ma'no ishlab chiqaruvchi mustaqil tizimga aylanadi. Bu tizimda peyzaj, fasl, tirik mavjudot va meteorologik detallar qahramon ruhiyati, tarixiy vaqt va axloqiy baholash bilan bog'lanadi. Ikkinchidan, Xarde poetikasida tabiat konsepti ekosentrik xususiyatga moyil: inson makon ustidan mutlaq hukmron emas, balki tabiiy va tarixiy jarayonlar ichida yashaydi. Xardening "yashil" o'qilishiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham uning inson va noiinson mavjudotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka kuchli e'tibor berganini ko'rsatadi [10].

Uchinchidan, Do'stmuhammad tabiat konseptining psixologik va semiotik funksiyasi kuchliroq. Adib peyzajni ko'pincha qisqa, ammo ma'nosi zich detallar bilan beradi. Shuning uchun bir qora bulut yoki bir gul butun bir davr va inson holatini ifodalash quvvatiga ega bo'ladi. Bu uslub o'zbek nasridagi an'anaviy peyzaj tasvirini zamonaviy psixologik va ramziy ifoda bilan uyg'unlashtiradi. Rahmonovanning tadqiqotlarida Do'stmuhammad ijodida ramz, metaforik obraz va psixologik tasvirning yetakchi o'rin tutishi qayd etilgani ham mazkur xulosani quvvatlaydi [7].

To'rtinchidan, "tabiat konsepti"ni faqat ekotantid bilan cheklash maqsadga muvofiq emas. Xarde asarlarida ekologik munosabatlar kuchli bo'lsa-da, tabiat taqdir, tarix, sinf va mehnat bilan bog'langan;

Do'stmuhammad esa tabiat estetik idrok, milliy xotira va ruhiy tahlilga yaqin. Shuning uchun kompleks yondashuv – konseptual tahlil, poetika, psixologizm va ekotantidni birlashtirish – ikki ijodkordagi tabiatning keng ma'no doirasini to'liqroq ochadi.

Beshinchidan, bu qiyos adabiy ta'sirni isbotlashga qaratilmagan. Xarde va Do'stmuhammad turli tarixiy va madaniy muhitda ijod qilgan. Ularning yaqinligi tabiatni inson haqida fikrlashning muhim vositasiga aylantirishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda qiyosiylik – genetik bog'liqlik emas, tipologik va poetik munosabatni anglatadi. Xardening keng landshaftli, sekin ritmli tasviri bilan Do'stmuhammadning zich, ramziy va psixologik tabiat detallari bir mavzunung ikki xil badiiy yechimini ko'rsatadi.

Xulosa

Tomas Harde va Xurshid Do'stmuhammad ijodida tabiat konsepti qiyosiy o'rganilganda uning ikki adib poetikasida ham markaziy ma'no yaratuvchi omil ekanini ko'rinadi. Xarde uchun tabiat, avvalo, insondan keng va uzoq yashaydigan makon: Uesseks, Egdon hiti, o'rmon, dala va fasllar qahramon taqdirini o'rabgina qolmay, uning imkoniyatlari va cheklanishlarini belgilaydi. Do'stmuhammad uchun esa tabiat ko'p hollarda inson ruhiyatini sezdiradigan badiiy tilga aylanadi: bahor – yangilanish va vaqt qadri, gul – umid va noziklik, qora bulut – xavotir, "chayangul" – ijtimoiy bosim ta'siridagi ruhiy o'zgarish ramzidir.

Ikki ijodkorni birlashtiruvchi asosiy nuqta – insonni tabiatdan ajratib tasavvur qilmaslik. Ammo Xarde "inson tabiatning bir qismi" degan ekosentrik qarashni makon va uzoq vaqt orqali kuchaytirsa, Do'stmuhammad "tabiat inson qalbining hamsuhbati" degan psixologik-estetik modelni oldinga chiqaradi. Shu bois tabiat konsepti Xarde ijodida makon-taqdir-tiriklik uchligi, Do'stmuhammad ijodida esa sezgi-ruhiyat-ramz uchligi asosida shakllanadi.

Mazkur natijalar tabiat obrazlarini faqat peyzaj doirasida emas, badiiy konsept sifatida o'rganish samarali ekanini ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda mazkur konseptning leksik-semantik maydoni, rang va tovush obrazlari, hayvon va o'simlik nomlarining ramziy funksiyasi, shuningdek, tarjima jarayonida tabiat konseptining saqlanishi yoki transformatsiyalanishi alohida yo'nalish sifatida tadqiq qilinishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hardy T. Tess of the d'Urbervilles. – London: Penguin Classics, 2003. – 592 p.
2. Hardy T. The Return of the Native. – London: Penguin Classics, 2003. – 512 p.
3. Hardy T. The Woodlanders / ed. P. Ingham. – London: Penguin Classics, 1998. – 464 p.
4. Do'stmuhammad X. Hikoya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
5. Do'stmuhammad X. Qissalar. – Toshkent: Sharq, 2011.
6. Rahmonova X. Xurshid Do'stmuhammad ijodida badiiy tasvir masalasi // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – 36-son, 1-to'plam. – B. 51–57.
7. Rahmonova X. X. Xurshid Do'stmuhammad hikoya va qissalari badiiyati (obraz va tasvir): filol. fan. d-ri (DSc) diss. avtoref. – Toshkent, 2021.
8. Nuruzzaman M. Tess in Hardy's Tess of the d'Urbervilles: The Other Self of Nature // Crossings: A Journal of English Studies. – 2017. – Vol. 8. – P. 153–159.

9. Almutairi A. S. Exploring the Symbolism of Nature in the Works of Thomas Hardy: An Eco-critical Perspective // Journal of Humanities & Social Sciences. – 2025. – Vol. 9, No. 4. – P. 103–109.
10. Gadoin I. Introduction: Hardy's Various Shades of Green // FATHOM. – 2022. – No. 7.
11. Glotfelty Ch., Fromm H. (eds.). The Ecocriticism Reader: Landmarks in Literary Ecology. – Athens: University of Georgia Press, 1996. – 415 p.
12. Garrard G. Ecocriticism. 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2012. – 240 p.
13. Qodirova M. Thomas Hardy va Xurshid Do'stmuhammad asarlarida tabiat va jamiyat munosabatining badiiy-falsafiy talqini // Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar. – 2026. – J. 3, № 8. – B. 8–12. DOI: 10.67227/ptfy5r10.
14. Sultonova M. Peyzaj san'ati. – Toshkent: Fan, 1983